



Miralisher XASANOV,
O'zbekiston Milliy universiteti Mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: miralisherkhasanov@gmail.com

O'zMU dotsenti v.b, PhD R.Omonov taqrizi asosida

FUNCTIONAL FOUNDATIONS OF PUBLIC ADMINISTRATION

Annotation

This article is based on research on such areas as state administration and its functional structure, foundations, political institutions and their significance for the development of the country, the full expression of the interests of all classes and social groups by state power, the formation of a broad administrative apparatus regulating various spheres of life, and scientific and theoretical studies on the set of norms and rules regulating political relations between state organizations and people in the management system.

Key words: State and society, state power, management, management functions, functions, public management, management bodies, power.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются такие направления исследований, как государственное управление и его функциональная структура, основы, политические институты и их значение для развития страны, полное выражение интересов всех классов и социальных групп органами государственной власти, формирование широкого административного аппарата. аппарат регулирования различных сфер жизни, роль государства в системе управления. Исследования по научно-теоретическим исследованиям основывались на комплексе норм и правил, регулирующих политические отношения между государственными организациями и людьми.

Ключевые слова: Государство и общество, государственная власть, управление, функции управления, функции, управление обществом, органы управления, власть.

DAVLAT BOSHQARUVINING FUNKSIONAL ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat boshqaruvi va uning funksional tuzilishi, asoslari, siyosiy institutlar hamda uning mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyati, davlat hokimiyatining barcha tabaqalar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini to'la ifodalashi, hayotning turli sohalarini tartibga soluvchi keng boshqaruv apparatini shakllantirishi kabi tadqiqot yo'nalishlari, boshqaruv tizimida davlatning tashkilotlar va insonlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar va qoidalar majmui bilan ilmiy-nazariy tadqiqotlar borasidagi izlanishlar asoslandi.

Kalit so'zlari: Davlat va jamiyat, davlat hokimiyati, boshqaruv, boshqaruvi funksiyalari, funksiyalar, jamiyat boshqaruvi, boshqaruvi organlari, hokimiyat.

Kirish. Har qanday zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayon, xususan, davlat boshqaruvi kabi tizim hodisalarini tushunishga intilish bizni bu masalaning tabiati va mohiyatiga murojaat qilishga undaydi. Jamiyatda yuz beradigan ko'plab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar aynan boshqaruv masalasi bilan uzviy bog'liqlikda vujudga keladi. Aslida lotincha "administratio" – "xizmat" va "boshqaruv" degan atama rahbarlik qilishni (kimgadir, nimagadir) bildiradi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini, erishilayotgan muhim marralarni tahlil qilish, davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi yangi g'oyalarni, belgilangan hayrli maqsad va vazifalarni, shakllanayotgan demokratik institutlar hamda ijtimoiy – siyosiy qadriyatlarni talqin etish, ularni huquqiy tafakkurimiz va madaniyatimizning tarkibiy qismiga aylantirish bosh maqsadlarimizdan biriga aylantirishdan iborat bo'lib turgan bir paytda adolatli insonparvar, demokratik davlat, erkin va farovon hayot barpo etishni bosh maqsad qilib olgan O'zbekiston Respublikasi ham, bugun davlat boshqaruvida aniq natijalarga erishishga qaratilgan zamonaviy uslublarni amaliyotga joriy etish xususan, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ulug'vor g'oyani hayotga to'liq tatbiq etish yo'lida mustahkam islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu

borada "Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz,- deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Funksiya-vakolat doirasidan kelib chiquvchi faoliyatdir. Chunki, "funksiya" lotin tilidan olingan bo'lib, "bajarish", "faoliyat", "vazifa" kabi ma'nolarni anglatadi[3]. U qo'llanish vakolatiga ko'ra proporsional ravishda o'zgarib boradi. Davlat boshqaruv funksiyalarida uning mohiyati va ijtimoiy yo'naltirilganligi, maqsad va vazifalari aks etadi. Shuni aytish kerakki, funksiya davlat tashkilotining ichida tadbiq qilinishi mumkin emas, ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga hamohang tadbiq qilinadi.

Tahlil va natijalar. Davlat boshqaruvi funksiyalari deyilganda, ijtimoiy jarayonlarga davlatning obyektiv shartlangan ko'rinishidagi (vakolat, maqsadni ko'zlovchi, tashkillashtiruvchi va nazorat qiluvchi) ta'sir etishi tushuniladi. Davlat boshqaruvida funksiyalar yig'indisiga 2 ta asosiy jihatga ta'sir ko'rsatadi:

Holat, struktura, ijtimoiy jarayonlarning o'zini-o'zi boshqarishi ya'ni boshqariladigan obyektlar to'plamiga;

Davlatning jamiyatga nisbatan o'rni va roliga[4].

Yuqoridagi jihatlardan kelib chiqib, davlat boshqaruvi faoliyatini o'zida aks ettiruvchi funksiyalarning umumiy belgilarini quyidagicha yuritilishini ma'qul deb hisoblaymiz.

Rejalashtirish funksiyasi. Bunda davlat boshqaruvining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishini rejalashtirishda maqsadga nima bilan, qanday, qayerda, qachon kabi savollarga javob berish orqali shakllantiriladi;

Tashkillashtirish funksiyasi. Ko'zlangan natijalarga erishishda boshqaruv subyektlari barcha tizimining funksional faoliyatida samarali outsorsing, kontraktning aut va ijtimoiy sheriklik asoslarini ishlab chiqish hisoblanadi;

Tartibga solish funksiyasi. Davlat siyosiy institutlari o'rtaidagi vazifalar (funksiyalar, vakolatlar)ni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirish va muvofiqlashtirish hisoblanadi;

Davlat xizmatchilarini boshqarish va xizmatchi kadrlar bilan ishlash funksiyasi. Inson resurslarini boshqarish va uni samarali taqsimlash hamda boshqaruvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish;

Nazorat qilish funksiyasi. Aniq ko'rsatkichlar asosida natijalarni baholash va ish samaradorligini xulosalash.

Davlat va jamiyat o'zaro bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Chunki, insonlarning ijtimoiy hayoti katta xajmli erkinlikka va o'zini-o'zi boshqarishga ega. Ushbu ijtimoiy erkinlikni chegaralari esa, siyosiy institutlar hamda davlat tomonidan belgilanadi. YA'ni, davlat qonunlar qabul qilish orqali insonlar hayotining barcha jabhalaridagi ahloqiy, huquqiy meyorlarni ta'sis etadi va buning ustidan qat'iy nazoratni ta'minlaydi. Ushbu holat esa, "davlat boshqaruvining jamiyatga yoyilishi" deb baholanadi. Natijada, davlat boshqaruvining umumiy ma'nodagi talqini bu-muayyan davlatning butun aholisini qamrab oladigan ierarxik-pog'onaviy tashkilot hamda bunda aholi davlatning substansional unsurini tashkil etadi.

Shu bois, davlat boshqaruvini tashkil etish yaxlit bir tizim bo'lib, u qator xarakterli xususiyatlarga egadir:

Davlat boshqaruvi bu davlat organlari va muassasalarining yaxlit ierarxik (pog'onaviy) tizimidir. Davlat boshqaruvining yaxlitligi uni tashkil etish va faoliyatining prinsiplari, maqsad va vazifalari mustarakligi, umumiyliги orqali ta'minlanadi;

Davlat boshqaruvining birlamchi tarkibiy elementlari bo'lib, davlat organlari va davlat muassasalari hisoblanadi va ular da maxsus ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar-davlat xizmatchilari ishlashadi. Davlat organlari o'zaro bo'ysunish munosabatlari bilan bog'langandir;

Davlat boshqaruvi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun zaruriy bo'lgan siyosiy resurslar bilan ta'minlangan;

Davlat boshqaruvi orqali bevosita davlat hokimiyati amalga oshiriladi, davlatning vazifa va funksiyalarining bajarilishi ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, davlatning asosiy boshqaruvchilik vazifalari- rahbarlik, muvofiqlashtirish, tashkil etish, nazorat, tartibni saqlash va davlatni har tomonlama taraqqiy ettirish maqsadida qarorlar qabul qilish, uning tuzilishi va faoliyatini tartibga keltirish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ularning har tomonlama faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Davlat boshqaruvi sohasidagi turli maktab va yo'nalishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ular antagonistik ekanliklariga qaramay, bir-birini to'ldiradi. Davlat boshqaruvi jarayonining norasmiy jihatlarini tadqiq etish, xodimni rag'batlantirish, davlat boshqaruvi samaradorligini o'lchash indikatorlari, global boshqaruv imkoniyatlari, ijtimoiy bashorat qilish istiqboldagi davlat boshqaruvini tadqiq etishning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonlik olim, falsafa fanlari doktori R.Samarav o'zining "Ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashning nazariy-amaliy jihatlarini" nomli ilmiy maqolasida "boshqaruv" tushunchasiga to'xtalib, "boshqaruv deb, belgilab olingan aniq maqsadga muvofiq, u yoki bu natijaga erishish uchun institutsional tarzda tartibga keltirishga, barpo etishga, takomillashtirishga, qisqartirishga yoki obyekt tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan, subyektning obyektga turli ko'rinish va darajalarda ta'sir etish jarayoniga aytiladi" deb ta'rif beradi[5].

Fikrimizcha, boshqaruv nazariyasini turli obyektiv va subyektiv jihatlar asosida tasniflash mumkin, ammo boshqaruvning amaliyotidan kelib chiqqan holda uning mazmundorligini inobatga olib ikki darajaga ajratish maqsadga muvofiq:

boshqaruvning birinchi darajasi, davlat rivojlanishining turli evolyusiyasida institutlar faoliyat mexanizmini aniq tushuntira olishga qodir bo'lgan falsafiy, siyosiy, iqtisodiy va sotsiologik konsepsiyalarning majmuasidan tarkib topgan boshqaruv nazariyasi;

boshqaruvning ikkinchi darajasi, boshqaruvning turli obyektlarining yig'indisi, amaliy bilim va ko'nikmalarning birligi sifatida, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash maqsadida, fundamental ilmiy nazariyalarni (matematika, mantiq, psixologiya, akmeologiya) qamrab olgan amaliy fan sifatida.

Shu bois, davlat boshqaruvi tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini ochib berish bo'yicha o'rganilgan ilmiy izlanishlar natijasini umumlashtirib, davlat boshqaruvi tushunchasiga quyidagicha ta'rifni keltirib o'tamiz: "Davlat boshqaruvi bu-davlat hokimiyatining qonuniy tashkil etish usullari majmui bo'lib, insonlarning ijtimoiy hayot faoliyatlariga davlatning amaliy, tashkiliy va tartibga soluvchi ta'siridir"[6].

ADABIYOTLAR

1. Rahmonov A. "O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi". -T., "Akademiya". 2007 yil. 6 - bet.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. 3- жилд, Т.: "Ўзбекистон", 1996. - Б.11.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Ф ҳарфи. "Давлат илмий нашриёти", -Т.: 2001-2006 йй. -Б.304.
4. Кириллова С.Ю. «Эффективность государственного управления». -М., "Санкт-Петербург", 1999.
5. Самаров Р. "Ижтимоий тараққиётни таъминлашнинг назарий-амалий жиҳатлари" Илмий мақола. // -Т., "Муҳофаза +" журнали. 2011. 4-сон. Б.4-5.
6. Мирзаахмедов К.М. Давлат бошқаруви тизимини демократлаштиришда сиёсий ҳокимият легитимлигини такомиллаштириш механизмлари. Монография. -Т.: "Маърифат", 2023. 112 бет.